ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA DAVLAT ORGANLARI O‘RTASIDAGI IJTIMOIY SHERIKLIK MEXANIZMINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Tursunkulov Elbek Oybek o‘g‘li
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Yurisprudensiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Abduhakimov Anvar Shaydullo o‘g‘li
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Yurisprudensiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21897082

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik mexanizmini huquqiy tartibga solishning nazariy hamda amaliy masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy sheriklik institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, milliy qonunchilikdagi o‘rni, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik shakllari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari o‘rganildi. Shuningdek, xalqaro tajriba qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinib, amaldagi qonunchilikdagi bo‘shliqlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy sheriklikning huquqiy samaradorligini baholash modeli va davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish bo‘yicha huquqiy mexanizm taklif etildi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, ijtimoiy sheriklik, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoatchilik nazorati, ishtirok etuvchi boshqaruv, huquqiy tartibga solish, davlat boshqaruvi.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyoda davlat boshqaruvi tizimida fuqarolarning ishtirokini kengaytirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda qarorlar qabul qilish jarayoniga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish demokratik islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy demokratik davlat konsepsiyasida davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar faqat ma'muriy boshqaruv orqali emas, balki hamkorlik, o‘zaro mas’uliyat va ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida shakllanishi lozimligi e'tirof etilmoqda [1].

Fuqarolik jamiyati institutlari davlat hokimiyati tizimining tarkibiy qismi bo‘lmasa-da, ular davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, aholining manfaatlarini ifodalash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashda muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari davlat organlari bilan hamkorlik qilish orqali ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim subyekt sifatida maydonga chiqmoqda [2].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining 16-maqsadida ham inklyuziv institutlarni rivojlantirish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish va samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlangan [3]. Mazkur tamoyillar davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni huquqiy jihatdan mustahkamlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash hamda davlat organlari bilan hamkorligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Xususan, yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, jamoatchilik nazorati hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid qator konstitutsiyaviy normalar mustahkamlandi [4].

Mazkur konstitutsiyaviy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, unda davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy prinsiplari, shakllari, subyektlari va vakolatlari belgilandi [5]. Qonunga ko‘ra, ijtimoiy sheriklik davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal etish bo‘yicha hamkorlikni anglatadi.

Shu bilan birga, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi davlat organlari faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini mustahkamladi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini yangi bosqichga olib chiqdi [6]. Bundan tashqari, ochiq davlat siyosati, elektron hukumat, ochiq ma'lumotlar tizimi va jamoatchilik muhokamasi institutlarining rivojlanishi davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikning zamonaviy shakllarini shakllantirdi [7].

Xorijiy davlatlar tajribasi ijtimoiy sheriklik samaradorligi, avvalo, ishtirok etuvchi subyektlar doirasi, maslahatlashuv muddati, fikrlarni ko‘rib chiqish va natijalarni e’lon qilish tartibining aniq belgilanishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Germaniyada Federal vazirliklarning umumiy reglamenti (GGO) 47-paragrafi manfaatlari daxldor bo‘lgan federal uyushmalar va professional doiralarni qonun loyihalarini tayyorlash jarayoniga o‘z vaqtida jalb etishni nazarda tutadi; bunda ishtirokning vaqti, hajmi va ishtirokchilarni tanlash masalasi, maxsus qoidalar bo‘lmasa, yetakchi vazirlik vakolatida qoladi [12]. Fransiyada Jamoatchilik va ma’muriyat o‘rtasidagi munosabatlar kodeksining L131-1 hamda L132-1–L132-3-moddalari maslahatlashuv tartibi va zarur axborotni ochiqlashni, ishtirok uchun oqilona muddat berishni, natijalar yoki keyingi choralarni e’lon qilishni, ochiq internet-maslahatlashuvining esa kamida o‘n besh kun davom etishini belgilaydi [13].

Kanadada Cabinet Directive on Regulation davlat organlaridan tartibga solish hujjatining butun hayotiy sikli davomida manfaatdor tomonlar bilan mazmunli maslahatlashishni, kelib tushgan fikrlarni hujjatlashtirishni va loyihalarni Canada Gazette’da, odatda, kamida o‘ttiz kunlik izoh muddati bilan oldindan e’lon qilishni talab qiladi [14]. Janubiy Koreya Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunining 41–44-moddalariga ko‘ra, qonunchilik loyihasi oldindan e’lon qilinadi, har qanday shaxs o‘z fikrini taqdim etishi mumkin, umumiy qoida bo‘yicha muhokama muddati kamida qirq kunni tashkil etadi va ma’muriy organ kelib tushgan asosli fikrlarni hurmat qilib, ularni ko‘rib chiqishi lozim [15]. Ushbu mamlakatlarda turli modellar amal qilsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat fuqarolarning ishtiroki umumiy deklarativ qoida sifatida emas, balki aniq muddatlar, axborot taqdim etish, fikr bildirish va qayta aloqa tartiblarini nazarda tutuvchi huquqiy mexanizm sifatida belgilanganidir. Mazkur yondashuv Yevropa Kengashining fuqarolik ishtirokiga oid standartlari hamda OECD tomonidan ilgari surilgan innovatsion fuqarolik ishtiroki tamoyillariga mos keladi [9], [10].

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda mazkur munosabatlar, odatda, hamkorlikka asoslangan boshqaruv (collaborative governance) konsepsiyasi doirasida izohlanadi. C. Ansell va A. Gash hamkorlikka asoslangan boshqaruvni davlat organlari hamda nodavlat subyektlar bevosita muloqot va konsensusga yo‘naltirilgan qaror qabul qilish jarayonida qatnashadigan institutsional forum sifatida tavsiflab, uning natijadorligini boshlang‘ich sharoitlar, institutsional dizayn, fasilitativ yetakchilik, ishonch va jarayonga sodiqlik bilan bog‘laydi [16]. K. Emerson, T. Nabatchi va S. Balogh esa samarali hamkorlik uchun prinsipial ishtirok, umumiy motivatsiya va birgalikda harakat qilish salohiyati o‘zaro uyg‘unlashishi kerakligini asoslaydi [17]. A. Fung ishtirok mexanizmini baholashda kim ishtirok etishi, ishtirokchilar qanday muloqot qilishi va muhokama yakuni davlat qaroriga qanday bog‘lanishini hal qiluvchi mezon sifatida ko‘rsatadi [18].

Milliy ilmiy adabiyotda ham davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarining ayrim jihatlari o‘rganilgan. M. Qirg‘izboyev fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi, mustaqilligi va davlat bilan o‘zaro aloqalarini demokratik taraqqiyotning institutsional sharti sifatida tahlil qilgan [20]. E. Nishanbayeva O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik institutining shakllanish bosqichlari va uning qonunchilik bazasi izchil rivojlanganini asoslaydi [21]. J. Abdug‘afforov mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik organlari misolida vakillik, uch tomonlama muloqot va maxsus tartib-taomillarning huquqiy ahamiyatini ochib beradi [22]. Mazkur tadqiqotlar muhim nazariy va normativ asos yaratgan bo‘lsa-da, davlat

organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni barcha sohalarda qo‘llash mumkin bo‘lgan yagona tartib-taomillar tizimi, asoslantirilgan qayta aloqa mexanizmi hamda natijadorlikni baholash mezonlari nuqtayi nazaridan yaxlit holda tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot qiyosiy-huquqiy va institutsional tahlil xususiyatiga ega bo‘lib, unda fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik mexanizmini huquqiy tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks o‘rganildi.

Tadqiqotning normativ-huquqiy manbalarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid Prezident farmonlari va qarorlari tashkil etdi [4], [5], [6]. Qiyosiy tahlil uchun Germaniya, Fransiya, Qozog‘iston va Janubiy Koreya qonunchiligi, shuningdek OECD, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hamda Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan fuqarolik ishtiroki va ochiq boshqaruvga oid tavsiyalar o‘rganildi [9], [10], [11].

Tadqiqot davomida ko’plab metodlardan foydalanildi. Birinchidan, formal-yuridik metod yordamida ijtimoiy sheriklik, fuqarolik jamiyati institutlari, davlat organlari, jamoatchilik ishtiroki, davlat ijtimoiy buyurtmasi hamda jamoatchilik nazorati tushunchalarining huquqiy mazmuni, ularning o‘zaro bog‘liqligi va normativ asoslari tahlil qilindi. Mazkur metod amaldagi qonunchilikdagi huquqiy normalarning mazmunini aniqlash hamda ularning amaliy qo‘llanilishidagi muammolarni baholash imkonini berdi.

Ikkinchidan, qiyosiy-huquqiy metod asosida O‘zbekiston va ayrim xorijiy davlatlarda ijtimoiy sheriklikni tashkil etish mexanizmlari quyidagi mezonlar asosida taqqoslandi:

1. ijtimoiy sheriklikning huquqiy modeli;
2. davlat organlari vakolatlari;
3. fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi;
4. davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar tizimi;
5. jamoatchilik muhokamasi mexanizmi;
6. davlat qarorlarini qabul qilishda fuqarolar ishtiroki;
7. ijtimoiy sheriklik natijalarini monitoring qilish tartibi.

Uchinchidan, tizimli-funksional metod yordamida davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik elementlari yagona huquqiy tizim sifatida o‘rganildi. Bunda ijtimoiy sheriklikning faqat grant yoki davlat buyurtmasi bilan cheklanmasdan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, davlat dasturlarini amalga oshirish, jamoatchilik nazorati, maslahatlashuvlar va davlat xizmatlarini ko‘rsatishdagi o‘rni tahlil qilindi.

NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni tartibga soluvchi qonunchilik tahlili mazkur institutning huquqiy asoslari yetarli darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan XIII bobi hamda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslarini belgilaydi. Konstitutsiyaga muvofiq, davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi hamda ularning jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun teng huquqiy imkoniyatlarni yaratadi.

“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy sheriklik davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va axborot almashinuvi kabi yo‘nalishlarda hamkorligini nazarda tutadi. Qonunda ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari

sifatida qonuniylik, teng huquqlilik, ochiqlik, shaffoflik, mustaqillik, o‘zaro hurmat va ixtiyoriylik belgilangan.

Shu bilan birga, amaldagi normativ-huquqiy bazani tizimli tahlil qilish ijtimoiy sheriklikni tashkil etuvchi huquqiy institutlar turli normativ hujjatlarda tarqoq holda tartibga solinganligini ko‘rsatdi. Mazkur holat ayrim vakolatlarning takrorlanishiga hamda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning yagona protsessual standartlari mavjud emasligiga olib kelmoqda.

1-jadval. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikning huquqiy asoslari

Normativ-huquqiy hujjat	Tartibga solish predmeti	Ijtimoiy sheriklikdagi o‘rni
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	Fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy maqomi	Konstitutsiyaviy asos
“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun	Davlat organlari va FJI hamkorligi	Asosiy maxsus qonun
“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun	Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati	Nazorat mexanizmi
“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun	NNTlarning huquqiy maqomi	Sheriklik subyekti
Prezident farmon va qarorlari	Davlat grantlari, ochiq boshqaruv, jamoatchilik kengashlari	Institutsional rivojlantirish

Manba: *Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69 va 72-moddalari, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi hamda “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va jamoatchilik kengashlari faoliyatiga oid Prezident hujjatlari tahlili asosida tuzilgan [4–6, 24–26].*

Tadqiqot davomida O‘zbekiston, Germaniya va Qozog‘iston tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Germaniyada davlat organlari huzuridagi maslahat kengashlari va fuqarolik platformalari faoliyati batafsil protsessual qoidalar bilan tartibga solingan bo‘lsa, O‘zbekistonda bunday institutlarning huquqiy asoslari mavjud bo‘lsa-da, ularning faoliyatini baholash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

2-jadval. Ijtimoiy sheriklik mexanizmlarining qiyosiy-huquqiy tahlili

Mezon	O‘zbekiston	Germaniya	Qozog‘iston
Ijtimoiy sheriklikka oid yagona maxsus qonun	“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi maxsus qonun mavjud	Yagona maxsus qonun mavjud emas; mexanizmlar turli hujjatlarda tartibga solingan	Yagona ijtimoiy sheriklik qonuni mavjud emas; alohida yo‘nalishlar maxsus qonunlar bilan tartibga solingan
Jamoatchilik kengashlari	PQ-3837-son qaror asosida tashkil etiladi	Tarmoq va sohalar kesimida maslahat organlari mavjud; yagona umumiy model belgilanmagan	383-V-son “Jamoatchilik kengashlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan batafsil tartibga solingan
Davlat grantlari	Qonunchilikda nazarda tutilgan; PF-124-son Farmon asosida qo‘llab-quvvatlash tizimi yangilangan	BHOning 23 va 44-paragraflari asosida davlat subsidiyalari va grantlari ajratiladi	36-III-son Qonun bilan NNTlarga grantlar berish tartibga solingan
Raqamli	Regulation.gov.uz va	Elektron	Open Government,

jamoatchilik ishtiroki	Meningfikrim.uz platformalari faoliyat yuritadi	petitsiyalar va vazirliklar darajasidagi raqamli maslahatlashuvlar mavjud	Open RLA, Open Dialogue va Open Budgets platformalari faoliyat yuritadi

Manba: *Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Germaniyaning GGO 47-paragrafi va Federal budjet Qozog‘iston Respublikasining jamoatchilik kengashlari, davlat ijtimoiy buyurtmasi va NNTlarni grant asosida qo‘llab-quvvatlashga oid qonunchiligi hamda “Open Government” platformasi [29–31] qiyosiy tahlili asosida tuzilgan.*

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikni huquqiy tartibga solishning asosiy muammosi normativ bazaning yetishmasligi emas, balki hamkorlikning protsessual mexanizmlarini amalga oshirish bo‘yicha yagona standartlarning mavjud emasligidir. Mazkur model amaldagi qonunchilikda bevosita nazarda tutilmagan bo‘lib, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning protsessual ketma-ketligini tizimli ravishda ifodalaydi. Normativ-huquqiy tahlil natijasida ijtimoiy sheriklik samaradorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatayotgan bir qator huquqiy muammolar ham aniqlandi.

3-jadval. Ijtimoiy sheriklik tizimidagi asosiy huquqiy muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

Aniqlangan muammo	Huquqiy oqibat	Muallif taklifi
Hamkorlik tartibining yagona reglamenti mavjud emas	Turli amaliyot shakllanmoqda	Yagona protsessual nizom qabul qilish
Samaradorlik mezonlari belgilanmagan	Natijalarni baholash qiyin	Milliy indikatorlar tizimini joriy etish
Jamoatchilik kengashlari vakolatlari turlicha	Vakolatlar takrorlanmoqda	Namunaviy reglament ishlab chiqish
NNTlarning tashabbuslarini ko‘rib chiqish muddati aniq emas	Byurokratik kechikishlar	Qonunda majburiy muddat belgilash
Monitoring tizimi yagona emas	Hisobotlarning sifati farqlanadi	Elektron monitoring platformasini yaratish

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy sheriklikning huquqiy samaradorligi nafaqat maxsus qonunning mavjudligiga, balki hamkorlikning barcha bosqichlari uchun aniq protsessual qoidalar, monitoring tizimi va natijalarni baholash mezonlarining mavjudligiga ham bevosita bog‘liq. Shu sababli ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishning keyingi bosqichi normativ-huquqiy bazani kengaytirish emas, balki mavjud institutlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikning konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari shakllanganini, biroq normativ mavjudlik bilan protsessual samaradorlik o‘rtasida tafovut saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun hamkorlikning subyektlari, prinsiplari va shakllarini belgilaydi, ammo maslahatlashuvni boshlash asoslari, manfaatdor institutlarni tanlash, hujjatlarni oldindan taqdim etish, takliflarni baholash, rad etilgan fikrlarni asoslantirish va natijalarni e’lon qilishning yagona ketma-ketligini to‘liq shakllantirmaydi [5]. Shu ma’noda, muammo huquqiy asoslarning yetarli emasligida emas, balki turli normalarni amaliyotda izchil qo‘llashni ta’minlaydigan yagona tartib-taomillar mexanizmining yetarli darajada shakllanmaganidadir.

Mazkur xulosa Ansell va Gashning hamkorlik natijadorligi institutsional tuzilma, o‘zaro ishonch hamda ishtirokchilarning hamkorlik jarayoniga sodiqligiga bog‘liq ekanligi haqidagi qarashlari bilan uyg‘un keladi. [16]. Biroq O‘zbekiston sharoitida o‘zaro ishonchni shakllantirishni faqat norasmiy muloqot bilan cheklash yetarli emas. Davlat organining maslahatlashuvlarni belgilangan tartibda o‘tkazishi, kelib tushgan takliflarni ro‘yxatga olishi, ularni ko‘rib chiqishi hamda natijasi yuzasidan asoslantirilgan javob taqdim etishi huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim. Emerson, Nabatchi va Balogh

taklif qilgan prinsipial ishtirok, umumiy motivatsiya va birgalikda harakat qilish salohiyati modeli ham ushbu tadqiqot natijalari bilan mos keladi [17]. Shu bilan birga, mazkur maqolada ushbu uch elementga huquqiy aniqlik va tashqi hisobdorlikni qo‘shish taklif qilinadi, chunki davlat organi ishtirok etadigan sheriklikda kelishuv natijasi ommaviy manfaat va budjet mablag‘lari bilan bevosita bog‘lanishi mumkin.

Fung tomonidan taklif etilgan “kim ishtirok etadi, ishtirokchilar qanday muloqot qiladi va muhokama natijalari qaror qabul qilishga qanday ta’sir ko‘rsatadi” degan uch mezonga asoslangan yondashuv O‘zbekistondagi jamoatchilik muhokamalarining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega [18]. Amaldagi amaliyotda taklif bildirish imkoniyatining mavjudligi fuqarolar ishtirokining muayyan shaklini ta’minlaydi. Biroq bildirilgan takliflarning yakuniy qarorga qay darajada ta’sir ko‘rsatgani ochib berilmasa, bunday ishtirok amaliy ta’sirga ega bo‘lmagan maslahatlashuv shakli bilan cheklanib qolishi mumkin. Bryson, Crosby va Stone ta’kidlagan natija hamda hisobdorlik talabi ham shu muammoni to‘ldiradi [19].

Milliy tadqiqotchilar pozitsiyalari bilan qiyoslanganda ham olingan natijalar qarama-qarshilikdan ko‘ra ilmiy yondashuvning chuqurlashuvini ifodalaydi. Qirg‘izboyev fuqarolik jamiyati institutlarining mustaqilligi va davlat bilan muvozanatli aloqalarini demokratik rivojlanish sharti sifatida ko‘rsatadi [20]. Nishanbayeva esa ijtimoiy sheriklikning milliy qonunchilik bazasi izchil takomillashganini asoslaydi [21]. Mazkur maqola ushbu xulosalarni inkor etmaydi, balki shakllangan normativ poydevorning amaliy natijadorligini ta’minlash uchun protsessual kafolatlar yetishmayotganini ko‘rsatadi. Abdug‘afforov tahlil qilgan mehnat sohasidagi uch tomonlama sheriklik maxsus organlar va vakillik mexanizmlari mavjud bo‘lganda muloqotning institutsionallashishini namoyish etadi [22]. Biroq mazkur maxsus modelni barcha davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlariga bevosita ko‘chirish mumkin emas; umumiy ma’muriy-protsessual standart va sohaviy tartiblar o‘zaro uyg‘unlashtirilishi kerak.

Qiyosiy tahlil xorijiy tajribani bevosita ko‘chirib olinadigan yagona model sifatida emas, balki milliy huquqiy sharoitga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan turli tartib-taomillar va huquqiy mexanizmlar yig‘indisi sifatida baholash lozimligini ko‘rsatadi. Germaniyada uyushmalarni jalb qilish GGOning 47-paragrafi bilan nazarda tutilgan bo‘lsa-da, ishtirok muddati va doirasi bo‘yicha yetakchi vazirlikda muayyan diskretsiya saqlanadi [12]. Fransiyada ishtirok uchun zarur axborot, oqilona muddat, kamida o‘n besh kunlik ochiq internet-maslahatlashuvi va natijalar xulosasini e’lon qilish talabi mavjud [13]. Kanadada erta maslahatlashuv, Canada Gazette’dagi odatiy o‘ttiz kunlik izoh muddati hamda fikrlarning qarorga ta’sirini hujjatlashtirishga urg‘u beriladi [14]. Janubiy Koreyada esa kamida qirq kunlik oldindan e’lon qilish va kelib tushgan fikrlarni ko‘rib chiqish talabi belgilangan [15]. Ushbu farqlar O‘zbekiston uchun xorijiy tajribada belgilangan muayyan muddatlarni aynan ko‘chirib olishdan ko‘ra, jamoatchilikni oldindan xabardor qilish, fikr bildirish uchun yetarli vaqt ajratish, takliflarni baholashning ochiq mezonlarini belgilash, asoslantirilgan javob berish hamda yakuniy natijalarni e’lon qilish kabi asosiy tartib-taomil kafolatlarini qonun darajasida mustahkamlash muhimligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot ijtimoiy sheriklikning O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari shakllanganini, ammo uning amaliy natijadorligi hamkorlik tartib-taomillarining yetarlicha aniqlashtirilmaganligi bilan cheklanayotganini ko‘rsatdi. Shu sababli “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunda yoki uning asosida qabul qilinadigan yagona protsessual nizomda maslahatlashuvni boshlash asoslari, manfaatdor fuqarolik jamiyati institutlarini ochiq mezonlar bo‘yicha tanlash, zarur axborotni oldindan e’lon qilish, fikr bildirish uchun yetarli minimal muddat, takliflarni baholash, qabul qilinmagan takliflarga asoslantirilgan javob berish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda yakuniy natijalarni e’lon qilish tartibini belgilash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2022). Drivers of Trust in Public Institutions. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9ea5658b-en
2. United Nations Development Programme. (2022). Governance for People and Planet. UNDP. https://www.undp.org

3. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. https://sdgs.un.org/2030agenda
4. O‘zbekiston Respublikasi. (2023). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://constitution.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi. (2014). “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ–376, 25-sentabr 2014-yil). LexUZ. https://lex.uz/uz/docs/2468214
6. O‘zbekiston Respublikasi. (2018). “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ–474, 12-aprel 2018-yil). LexUZ. https://lex.uz/uz/docs/3679092
7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2022). Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi tushunchasi. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=52660
8. World Bank. (2023). Citizen Engagement: An Independent Evaluation. World Bank. https://ieg.worldbankgroup.org
9. Council of Europe. (2019). Code of Good Practice for Civil Participation in the Decision-Making Process. Council of Europe. https://www.coe.int/en/web/civil-society/code-of-good-practice
10. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2020). Innovative Citizen Participation and New Democratic Institutions: Catching the Deliberative Wave. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/339306da-en
11. United Nations Development Programme. (2024). Human Development Report 2023/2024: Breaking the Gridlock. UNDP. https://hdr.undp.org
12. Federal Government of Germany. (2024). Gemeinsame Geschäftsordnung der Bundesministerien (GGO), § 47: Beteiligung von Ländern, kommunalen Spitzenverbänden, Fachkreisen und Verbänden. https://www.verwaltungsvorschriften-im-internet.de/bsvwvbund_21072009_O11313012.htm
13. République française. (2015, amaldagi tahrir). Code des relations entre le public et l’administration, articles L131-1, L132-1–L132-3 va R*132-4–R*132-10. Légifrance. https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/LEGITEXT000031366350/LEGISCTA000031367441/
14. Treasury Board of Canada Secretariat. (2025). Cabinet Directive on Regulation. Government of Canada. https://www.canada.ca/en/government/system/laws/developing-improving-federal-regulations/requirements-developing-managing-reviewing-regulations/cabinet-directive-regulation.html
15. Republic of Korea. (1996, 2019-yilgacha o‘zgartirishlar bilan). Administrative Procedures Act, Articles 41–44. WIPO Lex. https://www.wipo.int/wipolex/en/legislation/details/20776
16. Ansell, C., & Gash, A. (2008). Collaborative governance in theory and practice. Journal of Public Administration Research and Theory, 18(4), 543–571. https://doi.org/10.1093/jopart/mum032
17. Emerson, K., Nabatchi, T., & Balogh, S. (2012). An integrative framework for collaborative governance. Journal of Public Administration Research and Theory, 22(1), 1–29. https://doi.org/10.1093/jopart/mur011
18. Fung, A. (2006). Varieties of participation in complex governance. Public Administration Review, 66(S1), 66–75. https://doi.org/10.1111/j.1540-6210.2006.00667.x
19. Bryson, J. M., Crosby, B. C., & Stone, M. M. (2006). The design and implementation of cross-sector collaborations: Propositions from the literature. Public Administration Review, 66(S1), 44–55. https://doi.org/10.1111/j.1540-6210.2006.00665.x
20. Qirg‘izboyev, M. (2010). Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston.
21. Nishanbayeva, E. (2024). Mustaqillik yillari O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik institutini izchil rivojlantirishga oid qonun hujjatlarining takomillashuvi. O‘zMU xabarlari, 1(1.9.1), 14–16. https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.9.1.4209
22. Abdug‘afforov, J. (2024). Mehnat sohasidagi ijtimoiy sherikchilik tushunchasi hamda ijtimoiy sheriklik organlari to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili va ularning o‘zaro uyg‘unligi. Science and Education, 5(5), 313–320. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/7019